

DUDUQLANUVCHI BOLALAR LUG'AT BOYLGINI LOGORITMIKA VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH

*Nizomiy nomidagi O'zMPU Pedagogika-psixologiya va inklyuziv ta'lim fakulteti
Logopediya kafaedrası PhD, dotsent v.v.b*

Z.I.Sabirova

*Nizomiy nomidagi O'zMPU Pedagogika-psixologiya va inklyuziv ta'lim fakulteti
Logopediya yo'nalishi 4 bosqich talabasi*

S.S.Dexqonova

Annotatsiya: *ushbu maqolada duduqlanuvchi bolalarning lug'at boyligini rivojlantirishda logoritmikaning ritmik-harakatli, nafas-motor va musiqiy-prosodik komponentlari orqali leksik faollashtirishning korreksion mexanizmlari yoritilgan. Logoritmik mashqlardan tizimli foydalanish duduqlanuvchi bolalarda leksik boylikning kengayishiga, nutqning mazmunan aniq va izchil bo'lishidagi samarali ta'siri tahlil qilinadi.*

Аннотация: *В данной статье освещены коррекционные механизмы активизации лексики у детей с заиканием через ритмико-двигательный, дыхательно-моторный и музыкально-просодический компоненты логоритмики. Систематическое использование логоритмических упражнений анализируется с точки зрения их эффективного влияния на расширение словарного запаса у детей с заиканием и на формирование содержательно точной и последовательной речи.*

Annotation: *This article highlights the corrective mechanisms for activating vocabulary in children who stutter through the rhythmic-motor, breath-motor, and musical-prosodic components of logorhythmic training. The systematic use of logorhythmic exercises is analyzed regarding their effective impact on expanding the vocabulary of children who stutter and on promoting content-accurate and coherent speech.*

Tayanch so'zlar va tushunchalar: *duduqlanish, prosodika, logoritmika, intonatsiya, koordinatsiya, ritmik va melodik mashqlar, interaktiv o'yinlar.*

Ключевые слова и понятия: *Заикание, просодика, логоритмика, интонация, координация, ритмические и мелодические упражнения, интерактивные игры.*

Keywords and concepts: *Stuttering, prosody, logorhythmics, intonation, coordination, rhythmic and melodic exercises, interactive games.*

Duduqlanish — nutq aparati mushaklarining tortishishi sababli nutqning sur'at va ohangining buzilishi bilan ifodalanadigan nutq nuqsoni. Duduqlanishning uch darajada kuzatiladi: yengil, o'rta va og'ir. Davomiyligiga ko'ra duduqlanish: doimiy, to'lqinsimon va qaytalanuvchi. Hozirgi vaqtda duduqlanish sabablarini ikki guruhga bo'lib o'rganamiz: moyillik va turtki

(keltirib chiqaruvchi sabab). Ushbu nuqsonni keltirib chiqarishda bosh miya po'stlog'ida joylashgan markazlardagi nerv jarayonlarining kuchi va xarakatchanligining ortib ketishi, ularning o'zaro munosabati muhim ro'l o'ynaydi. Turtki omillar qatoriga ota-onalarning nevrologik muommolari, dududuqlanuvchi bolada namoyon bo'ladigan nevropatik belgilar, bosh miyaning turli davrlarda rivojlanish jarayonida ko'plab salbiy omillar ta'sirida shikast yetishi, shuningdek nasliy buzilishlar ham sabab bo'ladi.

Duduqlanishni bartaraf etish kompleks yondashuvni talab etadi. Tibbiy chora-tadbirlar, jismoniy mashqlar, nutq funksiyasini normallashtirish bilan birga, logopedik mashg'ulotlarda asosiy metod sifatida logopedik ritmika qo'llaniladi. Duduqlanuvchi bolalar talaffuzida intonatsiya, urg'u va ritm buziladi. Nozik buyumlar bilan ishlashda qiyinchiliklar, mimik motorikada o'zgarishlar kuzatiladi. Lug'at boyligi odatda cheklangan bo'ladi, biroq muntazam logopedik va logoritmik mashg'ulotlar orqali uni sezilarli darajada boyitish mumkin.

Logoritmika – bu neyropsixologik gimnastika elementlarini o'z ichiga olgan psixosomatik amaliyot va mashqlar majmuasidir. Logoritmika dududuqlanuvchi bolalar lug'at boyligini, nutq va harakatni qamrab olgan kompleks mashg'ulotlar, psixoterapevtik va umumtarbiyaviy metodlar orqali rivojlantiradi. Mashg'ulotlar individual va guruhli tarzda olib boriladi, ularni tashkil etishda individual yondashuv tamoyili muhimdir.

Lug'at boyligini rivojlantirishda logoritmikaning bir qancha usul va texnikalari mavjud:

“So'z zanjiri” o'yini

Maqsad: Yangi so'zlarni o'rganish va nutqda bor so'zlarni muloqotda foydalana olish ko'nilmasini shakillantirish. (4-6 yosh)

Birinchi bola kitob so'zini aytadi, keying bola shu so'zni takrorlab, yangi so'z qo'shadi (kitob-deraza). Shu tarzda zanjir davom etadi, bolalar musiqa bila birgalikda qo'l harakatlari orqali zanjirni davom ettirishadi. Musiqa to'xtaganda o'yinni bajarishda kechikkan yoki xat'o qilgan bola o'yindan chiqadi yoki shu vazifani takrorlashi lozim.

“Hayvonot bog'i” o'yini

Maqsad: Rollar, kichik dramatizatsiya orqali bolalar nutqida bor so'zlarni muloqotga qo'llay olish ko'nikmasini rivojlantirish. (5-6 yosh)

Har bir bola hayvon harakatini ritmda bajarib, uning nomi va xususiyatini aytadi. Musiqa to'xtaganida qo'lini ko'tarmagan bola barcha bolalar ko'rsatga hayvon nomlarini takrorlaydi.

“Kengurun” o'yini

Maqsad: Umumiy motorikani rivojlantirish va so'z zaxirasini ko'paytirish. (4-5 yosh)

Yerga doira shaklda buyumlarning rasmlari qo'yiladi. Bolalar har bir rasmdagi buyum nomini aytib, 2-3 metr masofaga kengurundek sakrab boradi (yoki begilangan masofaga), to'plangan buyumlar orasidan mos rasmni topadi va uning nomini to'g'ri talaffuz qiladi.

“So'zlar shamoli” o'yini

Maqsad: Nafas bila so'z chiqarishni rivojlantirish, lug'at boyligini kengaytirish, ritm va motor koordinatsiyani mustahkamlash. (4-5 yosh)

Bola tarqatma materialni ushlab chuqur nafas oladi va nafas chiqarish bilan tarqatma materialni havoga uchirar ekan, tanlangan so'zni ritmik harakat bilan talaffuz qiladi. Musiqa ritmiga moslash orqali so'z tezligi va nafas nazorati boshqariladi, logoped mashg'ulot jarayonida yangi so'zlarni talaffuz etiradi, bolalar o'zlashtirgan so'zlarni takrorlab so'zlar zanjirini hosil qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilari va boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini rivojlantirishda logoritmik mashg'ulotlarni olib borish samarali hisoblanadi. Ushbu metodika musiqa, ritm va harakatlarni nutq jarayoni bilan integratsiyalashga asoslanadi, bu esa artikulyatsiya harakatchaniligining aniqligi, fonatsion nazorat va koordinatsiyani yaxshilashga yordam beradi. Koreksion logopedik mashg'ulotlarda nafas, fonatsion va barmoq gimnastikasi, vizual materiallar, rolli va harakatli o'yinlar qo'llaniladi, bu bolalarning lug'at boyligini oshiradi va so'zlarni samarali yodlashga ko'maklashadi. Doimiy va tizimli mashg'ulotlar (haftada 2–4 martadan, 20–30 daqiqagacha) nutqning barqarorligini ta'minlaydi, individual yondashuv va ota-ona hamkorligi esa samaradorlikni oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ayupova. N.I. Logopediya va nutqni korreksiya qilish texnologiyalari. Toshkent: Ilm-Ziyo, 2020.
2. Далькроз. Ж.Е. Ритмика и музыкально-ритмическое воспитание. Швейцария.
3. Шашкина. Г.Р. Логоритмика в коррекции речи детей. Москва, 2015.
4. Левина. Р.Е. Нарушения речевого темпа и ритма у детей с заиканием. Москва, 2012.
5. Коваль. Л.В. Логоритмические упражнения для детей с речевыми нарушениями. Санкт-Петербург, 2016.
6. European International Journal of Pedagogics. Stuttering and speech development in children, 95, 2021. <https://eipublication.com/index.php/eijp>



7. Z.I.Sabirova Correctional-pedagogical work system for preparing children with severe speech defects for school. Hosted Online from Los Angeles, California, USA on February 10th, 2023. www.conferencezone.org

8. Z.I.Sabirova The development of awareness of students with disabilities in the conditions of inclusive education through the means of uzbek folklore. Pegim Journal of Education and Instruction. Noyabr. 4, 2025